

**JADID NASRIDA XOTIN-QIZLAR HAYOTIDAGI O`TKIR IJTIMOIY  
MUAMMOLARNING OCHIB BERILISHI**

---

*Dadajonova Dilnozaxon Botirjon qizi  
Filologiya yo'nalishi II kurs talabasi  
Telefon raqami: +998993976827  
Ilmiy rahbar: Filologiya fanlari nomzodi  
Karimov Obidjon Yakubjonovich*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada millatimiz qahramonlari, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Oybek va boshqa bir qator jadid yozuvchilarining ijodida xotin-qizlar hayotidagi o'tkir ijtimoiy muammolarning qay tarzda ochib berilganligini yoritishga harakat qilingan.

**Kalit so'zlar:** jadidchilik, jamiyat, xotin-qizlar, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, qiyos, millat, "Mehrobdan chayon", "O'tkan kunlar", "Kecha va Kunduz", roman, Gulnor, Ra'no, Kumushbibi, "Dahshat", Unsin, go'riston, dodxo, Razzoq so'fi, ota.

*Zebi, Zebi, Zebona,  
Men ko`yingda devona.  
Seni sotdi o`z otang,  
Men bo`lain sadag`ang!  
Zahar qilib oshingni,  
Pirim yedi boshingni!  
Zebi, Zebonam!  
Qayda qolding, dilbarim?*

( *Abdulhamid Cho'lpon* )

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi mustamlakasiga aylangan, ko`plab g`arb davlatlaridan madaniy-ma'rifiy sohalarda ancha ortda qolib ketdan O'rta Osiyoda musulmon olamiga ilm-fanni qaytarib, uni jaholat hamda diniy mutaassiblik botqog`idan olib chiqish yo`lida boshlangan jadidchilik harakati keng tarqaldi. Bu davrda jadidlar mamlakat yuksalishi uchun makablar, banklar, nashriyotlar ochish bilan bir qatorda adapiyotga ham ulkan hissa qo'shdilar. Ular tomonidan yaratilgan ko`plab badiiy asarlarda ushbu zamon o`zbek jamiyatini qamrab olgan va uning o'sishiga to'sqinlik qilayotgan bir qator masalalar ko'tarib chiqilgan va ana shunday masalalardan biri xotin-qizlar hayotidagi o'tkir ijtimoiy muammolarning ochib berilishidir.

Mazkur mavzu deyarli barcha jadid yozuvchilari ijodida uchrashi bilan boshqalaridan alohida ajrab turadi. Darhaqiqat, atoqli adib Abdulla Qodiriy

romanlaridan tortib Abdulla Qahhor hikoyalarigacha bu masalaga katta e`tibor qaratilgani yaqqol ko`rinib turadi. Bu hodisani esa o`zbek jadidlarini birlashtirgan umumiyl maqsad — ilg`or, ilm-fandan xabardor, mutassiblashmagan va zamonaviy fikrlaydigan o`zbek millatini qurish harakati bilan izohlash mumkin. Ma`lumki, millatni quruvchilar uning vakili bo`lgan yosh avlodlardir. Ushbu yosh avlodni tarbiyalovchi inson esa ayol zotidir. Shu sababli ham jadidlar o`z asarlari bilan Turkiston onalari boshidan kechirayotgan qiyinchiliklarni ochib berishga, bu orqali ularga ko`rsatilayotgan munosabatni o`zgartirishga harakat qilishgan. Mazkur fikrlarni jadid Muhammad Sharif So`fizodaning millat onalarini ilm olishga chorlagan misralari ham tasdiqlaydi:

*Millati islomiyaning bonusi,  
O`zbek elining qorako `z ohusi,  
Kar qilur bir kun jahl og `usi,  
Ilm-u amal ushbu kasal dorusi.  
Qumri bilan bulbul-u bedonalar,  
Yaxshi o `qir, siz ham o `qing, onalar.*

Yozuvchilar eng ko`p urg`u bergen muammolardan birinchisi ko`pxotinlilikdir. Ushbu muammoni yoritar ekanmiz “Mehrobdan chayon” romanida Nigor xonim tilidan aytilgan mashhur jumla beixtiyor yodimizga tushadi:

“*Sho `rlik Ra `no bir yuz xotin yonig `a yuz birinchi kundash bo`lib boradimi?*<sup>1</sup>”

Bundan kelib chiqadiki, Ra`no xaramida yuzlab kanizaklari bor, o`zidan yoshi bir necha o`n barobar katta xonga yuz birinchi xotin bo`lib tushmoqda. Holbuki, bu qismat Abdulla Qahhorning “Daxshat” hikoyasidagi Unsinga, Cho`lpionning “Kecha va Kunduz”idagi Zebiga, Oybekning “Qutlug` qon” romanidagi Gulnorga ham tegishli. Bu qizlar — kelin bo`lib tushgan xonadonlarida onalari tengi ayollarga ikkinchi, beshinchi yoki sakkizinchi kundosh. Ularning bu vaziyati esa boshqa bir muammoni, o`n besh, o`n olti yoshli oddiy qizlarning otalari tengi qari boylargacha sotilganligini ko`rsatib beradi. Bu holdan Nigor xonim va Qurvonbibi kabi yolg`iz bolasini asrab-avaylab katta qilgan mushtipar onalar bag`ri — qon, Solih maxdum hamda Razzoq so`fidek ziqlana otalar cho`ntagi qappaygan.

Jadidlar mana shunday takabbur otalar qiyofasini yaratish orqali o`z zamonlari jamiyatida ayollarning qanchalik qadrsiz bo`lganini ko`rsatib berishgan:

“*Bu til, — deydi so`fi, — doim xudoning zikri bilan qaldiraydi. Bu og`iz hamma vaqt xudoning zikriga ochiladi. Og`iz bilan til — badaning jismida eng aziz va tabarruk a`zolar. Ularni xotin kishdek past maxluq oldida xor qilinadimi? Bo`lmasa, haq*

<sup>1</sup> Abdulla Qodiriy “Mehrobdan chayon” romani — “Sharq” nashriyoti, Toshkent, 2013-yil, 213-bet;

*taoloning bandalari it bilan ham gaplasha bersin! Yo`q, xotin kishiga juda zarur gap aytildi, u toifa bilan zarurat yuzasida gaplashiladi. Vassalom!”<sup>2</sup>*

Yuqoridagi “Kecha va kunduz” romanidan olingan parchada Razzoq so`fining ayollarga qanday past nazar bilan qarashini ko`rishimiz mumkin. Asarning boshqa bir qismida esa so`fining biror kasb etagini tutmaysizmi deb so`ragan akasiga: “Ahliyamiz ham uchchiga chiqqan chevar, xudoga shukur. Ojizamiz ham do `ppi tikishga “farang” bo`lib chiqdi! Ro`zg`orning ko`p-kamlarini o`zlari bitirishadi. Men bohuzur tasbihimni aylantirib yotsam ham bo`laveradi!” — deb javob bergeniga ham guvoh bo`lamiz. Xotini va qizi, aslida, er kishi tomonidan yopilishi kerak bo`lgan ro`zg`orni to`ldiryapti-yu, so`fi ular bilan bilan muloqot qilishni it bilan gaplashishga qiyoslaydi. Hattoki, uni boqayotgan ayolini o`z ismi bilan atashga or qilib, Fitna deb chaqiradi.

Ushbu holat faqatgina “Kecha va Kunduz” romanida emas, balki boshqa ko`plab asarlarda ham ko`rsatiladi. Misol uchun, “Daxshat” hikoyasidagi Olimbek dodxoni olaylik. Dodxoh Unsinni hammaning ichida “tegirmonchining qizi” deb masxara qildi. Bundan tashqari unga Unsinning bu xonadonidan butunlay ketish uchun qattiq chiranihi, hattoki, maqsadiga erishish uchun vahimasi dodxodek odamlarni tiligacha terlatadigan go`ristonga borishga tayyorligi haqorat bo`lib tuyildi:

*“Dodxonning dami ichiga tushib ketdi. Bir gadovvachchaning bu dargohdan ketishga oshiqishi unga haqorat bo`lib tushdi”<sup>3</sup>.*

Darhaqiqat, dodxo va unga o`xshagan kimsalar nazdida Unsindek norasida bir gadovvachchadir. Uning fikricha, Unsin Olimbek dodxoga xotin bo`lib tushganini, uning o`zidan yoshi ulug` yettita kundoshiga cho`ri bo`lib xizmat qilayotganini buyuk ne`mat deb qabul qilishi kerak edi. Ammo dodxo buning aksini ko`rganda Unsinni qabristonga jo`natib bu “ko`rnamatlik”ni jazolamoqchi bo`ldi, Unsin shartni bajara olmasligi uchun esa ortidan maymun yubordi.

Jadidlar ko`tarib chiqqan muammolardan yana biri ayollarning moliyaviy jihatdan qo`llab quvvatlanishidir. Oilalaridagi og`ir sharoitni yaxshilash maqsadida katta boylarga sotilgan qizlar turmush o`rtoqlari vafotidan so`ng nima qilishadi? Ushbu holatni Oybekning “Qutlug` qon” romanidagi Gulandom ismli qiz taqdirida ko`rishimiz mumkin. Onasining o`rnini egallagani uchun dushman ko`zi bilan qaraydigan, merosni qo`lga kiritish uchun bir-birlarini talaydigan katta boyning katta o`g`illaridan bechora qizga nimadir qolarmidi? Keyin qayerga boradi, qanday kun kechiradi? Gulandom ham umid bilan haqqini olish uchun dalol yollaydi. Dallol ham abjir chiqib, Gulandomga uylanadi, aldab Toshkentga olib boradi, uning ulushini qo`lga kiritib, o`zini musofir shahar ishratxonasiga tashlab ketadi. Balki, yozuvchi bu qiz taqdiri orqali Gulnorning kelajagiga ishora qilgandir.

<sup>2</sup> Abdulhamid Cho`lpon “Kecha va Kunduz” romani — “Ilm-ziyo-zakovat” nashriyoti, Toshkent, 2019-yil, 12-13-betlar. Keying keltirilgan jumlalar ham shu manbadan olingan.

<sup>3</sup> Abdulla Qahhor “Daxshat hikoyasi” — [www.ziyouz.com/kutubxonasi](http://www.ziyouz.com/kutubxonasi)

Abdulla Qodiriy o`z romanlarida Kumushbibi va Ra`no orqali o`qimishli, bilimli o`zbek ayoli qiyofasini yaratdi. Ra`no mактабдор domla qizi sifatida o`qish va yozishni bilar, o`z zamonasining darsliklarini yaxshi o`zlashtirgan bo`lib, she`r ham yozib turar edi. Kumushbibining Otabekka va onasiga yozgan maktublaridan esa uning qanchalik bilimga va saviyaga ekanligi ko`rinib turadi. Lekin barcha o`zbek ayollar ham ular kabi yaxshi tahsil ko`rishga muyassar bo`lmagan. Masalan, “Qutlug` qon” romanida yozilishicha, Gulnor tugul Mirzakarimboyning o`z qizi Nuri ham o`qishni-yozishni bilmaydi. Qurbi yeta turib boyning qiziga harf tanitmasligi bu oilada ayollar tahsili keraksiz deb hisoblanganligini bildiradi.

Ushbu asarlar faqatgina yozilish maqsadi bilan emas, balki qahramonlar taqdiridagi o`xshashliklar bilan ham uyg`undir. Masalan, “O’tkan kunlar”, “Qutlug` qon”, “Kecha va Kunduz” romanlarida Kumushbibiga, Gulnorga va Zebiga og`u beriladi. Bunday qabih jinoyatlarning sabablari, natijalari va ijrochilari har xil bo`lishidan qat`iy nazar bosh qahramon bo`lgan ayollarga zahar berilishi bilan asarlar mutanosibdir. Bu asarlarda ayyollarning bunday ayanchli qismati shunchalik ko`p takrorlanadiki, o`quvchida bu davr ayollarini hayoti shu kitoblarda tasvirlanganidek kechganiga hech qanday shubxa qolmaydi.

Bir so`z bilan aytganda, jadid nasrida ijod qilgan barcha ma`rifatparvar yozuvchilar o`z asarlarida oqil, o`qimishli, mamlakat taraqqiyotiga hissa qo`shadigan farzandlar tarbiyalay oladigan millat onalari g`oyasini ilgari surishgan. Ular bu kitoblari bilan mazkur g`oyani amalga oshirishi mumkin bo`lgan navbahor qizlarni xazonqa aylantirgan jamiyat yuziga oyna tutgandek bo`lishdi.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Abdulla Qodiriy “Mehrobdan chayon” romani — “Sharq” nashriyoti, Toshkent, 2013-yil;
2. Abdulhamid Cho`lpon “Kecha va Kunduz” romani — “Ilm-ziyoz-zakovat” nashriyoti, Toshkent, 2019-yil;
3. Abdulla Qahhor “Daxshat hikoyasi” — [www.ziyouz.com/kutubxonasi](http://www.ziyouz.com/kutubxonasi)
4. Oybek “Qutlug` qon” romani — [www.ziyouz.com/kutubxonasi](http://www.ziyouz.com/kutubxonasi)